


Farg'ona viloyatining sanoat ishlab chiqarishi
(2021- yil yanvar-aprel)


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021- yilning yanvar-aprel oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 6 998,1 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2020- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 100,2 %ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (93,1 %)ni tashkil etdi.



B– Tog‘kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, **C**–Ishlab chiqaradigan sanoat **D**–Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash, **E**–Suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilitatsiya qilish.

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
sanoat ishlab chiqarish, FHI* %da




Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi oshganligining asosiy omili, ishlab chiqaradigan sanoatda 0,8 %ga, elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash, havoni konditsiyalash va suv bilan ta‘minlash 1,3 %ga o‘shishga erishildi.

Shuningdek, tog‘kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati bo‘lib, - 44,1 %ga, konalizatsiya tizimi va chiqindilarni yig‘ish bo‘yicha xizmatlarda 20,3 %ga pasayishi kuzatildi.


*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Tog'kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami ishlab chiqarish hajmi va FHI, %da




Tog'kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2021- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 34,4 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 %ini tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat



2021- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 6 514,8 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 93,1 %ini tashkil etdi, hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,8 %ga o'sish kuzatildi.

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,4 %ni (2020-yilning yanvar-aprel oylarida - 0,2 %), o'rta-yuqori texnologiyali -10,7 % (14,4 %), o'rta-quyi texnologiyali - 25,5 % (29,7 %) va quyi texnologiyalisi – 56,5 % (47,6 %)ni tashkil etdi.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi - 4,7 % (2020- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajmi indeksi 75,0 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 0,6 % (2020- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 70,3 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 36,4 % (2020-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 122,0 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 16,3 % (2020- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 106,5 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab

chiqarishning ulushi –10,0 % (2020- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 76,1 %)ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati

2021- yilning yanvar-aprel oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 263,0 ming tonna klinkersement (2020- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 31,6 %ga o'sgan), 10,7 ming tonna o'simlik yog'i (7,7 %) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.



**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalar tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish**


Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-aprel	2021- yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Avtomobil benzini, ming t	95,4	82,6	-12,8
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	99,2	85,3	-13,9
Paxta tolasi, ming t.	24,7	27,6	2,9
O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.	12,2	10,7	-1,5

Ishlab chiqaradigan sanoatda, yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-aprel	2021- yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Portlandsement, ming t.	284,6	308,4	23,8
Klinkersement, ming t.	200,2	263,0	62,8
Natriy nitrat ming. t	1,8	1,6	-0,2
Dizel yoqilg'isi, ming t.	124,4	111,5	-12,9

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

2021- yilning yanvar-aprel oylarida



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 396,7 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (6,2 %ini) tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-aprel oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 1,3 %ga o'sishi kuzatildi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalaridan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-aprel	2021- yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt/s	94,8	128,7	33,9
Issiqlik energiyasi, ming gkal	818,4	620,0	-198,4

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish




Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 48,5 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 %ini) tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-aprel	2021- yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	3,7	4,4	0,7
Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	5,3	6,4	1,1
To'qimachilik chiqindilari, t.	4 640,0	4 475,6	-164,4

O'tgan yilning mos davriga nisbatan axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 16,8 % ga, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar – 18,1 %ga o'sishi, to'qimachilik chiqindilari esa 3,5 % ga pasayganligi, kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2 513,1 mlrd.so'mni tashkil etdi va uning jami sanoatdagi ulushi 35,9 %ni tashkil etdi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino, aroq mahsulotlari va pivo 0,8 % (2020- yil yanvar-aprel oylarida 1,0 %)ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qo'qon shahriga to'g'ri kelib, 20,1 %ni, shuningdek, Uchko'prik tumani 17,4 %ni, Farg'ona shahri 11,4 %ni, Toshloq tumani 8,0 %ni, Marg'ilon shahri 6,7 %ni hamda Bag'dod tumani 6,0 %ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (106,9 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich, Oltiariq (258,6 %), Beshariq (207,7 %), Furqat (175,9 %), tumanlarida, hamda Quvasoy (132,7 %), shahrida qayd etildi.



Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
2021- yilning yanvar-aprel oylarida

		<i>Hajmi mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi</i>	<i>O'sish sur'ati</i>
1	<i>Oltiariq t.</i>	77,8	3,1	258,6
2	<i>Qo'shtepa t.</i>	74,2	3,0	101,0
3	<i>Bag'dod t.</i>	152,0	6,0	111,0
4	<i>Buvayda t.</i>	73,2	2,9	95,0
5	<i>Beshariq t.</i>	94,7	3,8	207,7
6	<i>Quva t.</i>	66,3	2,6	108,1
7	<i>Uchko'prik t.</i>	437,5	17,4	92,3
8	<i>Rishton t.</i>	30,7	1,2	103,8
9	<i>So'x t.</i>	15,8	0,6	72,8
10	<i>Toshloq t.</i>	202,1	8,0	107,9
11	<i>O'zbekiston t.</i>	53,0	2,1	100,9
12	<i>Farg'ona t.</i>	25,9	1,0	80,2
13	<i>Dang'ara t.</i>	108,2	4,3	123,9
14	<i>Furqat t.</i>	75,2	3,0	175,9
15	<i>Yozyovon t.</i>	30,3	1,2	120,5
16	<i>Farg'ona sh.</i>	286,3	11,4	91,4
17	<i>Qo'qon sh.</i>	505,5	20,1	119,4
18	<i>Quvasoy sh.</i>	36,3	1,4	132,7
19	<i>Marg'ilon sh.</i>	168,3	6,7	79,7

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qo'qon shahriga to'g'ri kelib 18,7 %ni, shuningdek Uchko'prik tumani 15,7 %ni, Farg'ona shahri 13,5 %ni hamda Toshloq tumani 12,2 %ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida yuqori ko'rsatkich Oltiariq (373,7 %), Beshariq (363,7 %), Furqat (298,2 %) tumanlarida hamda Qo'qon (161,1 %), Quvasoy (148,2 %) shaharlarida qayd etildi.

**Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
2021- yilning yanvar-aprel oylarida**

		<i>Hajmi mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi</i>	<i>O'sish sur'ati</i>
1	<i>Oltiariq t.</i>	58,0	3,7	373,7
2	<i>Qo'shtepa t.</i>	44,1	2,8	95,2
3	<i>Bag'dod t.</i>	71,5	4,6	120,0
4	<i>Buvayda t.</i>	42,5	2,7	100,6
5	<i>Beshariq t.</i>	79,7	5,1	363,7
6	<i>Quva t.</i>	19,8	1,3	103,7
7	<i>Uchko'prik t.</i>	244,3	15,7	90,4
8	<i>Rishton t.</i>	15,5	1,0	95,0
9	<i>So'x t.</i>	5,7	0,4	112,3
10	<i>Toshloq t.</i>	190,3	12,2	109,3
11	<i>O'zbekiston t.</i>	31,3	2,0	98,6
12	<i>Farg'ona t.</i>	11,6	0,7	66,2
13	<i>Dang'ara t.</i>	75,9	4,9	144,3
14	<i>Furqat t.</i>	33,5	2,2	298,2
15	<i>Yozyovon t.</i>	13,9	0,9	105,3
16	<i>Farg'ona sh.</i>	210,2	13,5	89,6
17	<i>Qo'qon sh.</i>	291,9	18,7	161,1
18	<i>Quvasoy sh.</i>	17,7	1,1	148,2
19	<i>Marg'ilon sh.</i>	100,4	6,4	76,2



Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qo'qon shahriga to'g'ri kelib, 22,4 %ni, shuningdek, Uchko'prik tumanida 20,2 %ni, Farg'ona shahrida esa 8,0 %ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Oltiariq t (136,0 %), Furqat t (132,3 %) Quvasoy sh (120,7 %) qayd etildi.

**Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
2021- yilning yanvar-aprel oylarida

	<i>Hajmi mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi</i>	<i>O'sish sur'ati</i>
1 <i>Oltiariq t.</i>	19,8	2,1	136,0
2 <i>Qo'shtepa t.</i>	30,0	3,1	111,0
3 <i>Bag'dod t.</i>	80,5	8,4	104,1
4 <i>Buvayda t.</i>	30,8	3,2	88,1
5 <i>Beshariq t.</i>	15,0	1,6	63,4
6 <i>Quva t.</i>	46,5	4,9	110,0
7 <i>Uchko'prik t.</i>	193,2	20,2	95,0
8 <i>Rishton t.</i>	15,2	1,6	114,6
9 <i>So'x t.</i>	10,1	1,1	60,7
10 <i>Toshloq t.</i>	11,8	1,2	89,9
11 <i>O'zbekiston t.</i>	21,7	2,3	104,3
12 <i>Farg'ona t.</i>	14,3	1,5	97,0
13 <i>Dang'ara t.</i>	32,3	3,4	92,9
14 <i>Furqat t.</i>	41,7	4,4	132,3
15 <i>Yozyovon t.</i>	16,4	1,7	137,3
16 <i>Farg'ona sh.</i>	76,1	8,0	96,8
17 <i>Qo'qon sh.</i>	213,6	22,4	88,3
18 <i>Quvasoy sh.</i>	18,6	1,9	120,7
19 <i>Marg'ilon sh.</i>	67,9	7,1	85,5



**Farg'ona viloyati hududlari kesimida
sanoat ishlab chiqarish hajmlari
2021- yilning yanvar-aprel oylarida**


	<i>Hajmi mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi</i>	<i>FHI</i>
1 <i>Oltiariq t.</i>	123,6	1,8	113,0
2 <i>Qo'shtepa t.</i>	215,7	3,1	145,5
3 <i>Bag'dod t.</i>	218,1	3,1	92,9
4 <i>Buvayda t.</i>	119,0	1,7	101,2
5 <i>Beshariq t.</i>	167,7	2,4	110,8
6 <i>Quva t.</i>	155,8	2,2	101,6
7 <i>Uchko'prik t.</i>	597,0	8,5	101,1
8 <i>Rishton t.</i>	117,4	1,7	112,3
9 <i>So'x t.</i>	19,1	0,3	74,9
10 <i>Toshloq t.</i>	971,7	13,9	111,3
11 <i>O'zbekiston t.</i>	199,4	2,8	97,8
12 <i>Farg'ona t.</i>	235,1	3,4	141,1
13 <i>Dang'ara t.</i>	163,6	2,3	106,8
14 <i>Furqat t.</i>	90,1	1,3	154,5
15 <i>Yozyovon t.</i>	32,1	0,5	108,5
16 <i>Farg'ona sh.</i>	1 744,2	24,9	74,2
17 <i>Qo'qon sh.</i>	1 209,2	17,3	105,8
18 <i>Quvasoy sh.</i>	352,8	5,0	109,1
19 <i>Marg'ilon sh.</i>	266,5	3,8	101,5
Farg'ona viloyati	6 998,1	100,0	100,2

Farg'ona viloyat hududlari kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati %da

Viloyat sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksining o'sishiga asosiy omil sifatida, Furqat (2020- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 154,5 %), Qo'shtepa (145,5 %), Oltiariq (113,0 %), Rishton (112,3 %), Toshloq (111,3 %) tumanlari hamda Qo'qon (109,1 %) shahri sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada o'sishi bilan izohlashimiz mumkin.

Sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi indeksi, %da


Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishda o'sish sur'ati, %da



Oltiariq t.
Qo'shtepa t.
Bag'dod t.
Buvayda t.
Beshariq t.
Quva t.
Uchko'prik t.
Rishton t.
So'x t.
Toshloq t.
O'zbekiston t.
Farg'ona t.
Dang'ara t.
Furqat t.
Yozyovon t.
Farg'ona sh.
Qo'qon sh.
Quvasoy sh.
Marg'ilon sh.



Farg'ona viloyatida jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, %da



Viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Farg'ona shahri (Farg'ona viloyati sanoat ishlab chiqarish hajmining 24,9 %i) hamda Qo'qon shahri (17,3 %), Toshloq tumani (13,9 %) Uchko'prik tumani (8,5 %), Quvasoy shahri (5,0 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa So'x (0,3 %), Yozyovon (0,5 %), Furqat (1,3 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Farg'ona (5 930,5 ming so'm), Qo'qon (4 708,6 ming so'm), Quvasoy (3 705,4 ming so'm) shaharlarida va Toshloq (4 726,3 ming so'm) tumanida yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Farg'ona viloyati bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 656,7 ming so'm bo'lgan holda, Uchko'prik tumani – 1 884,1 ming so'mni, Qo'qon shahri – 1972,4 ming so'mni, Toshloq tumani 982,8 ming so'mni, Farg'ona shahri – 973,3 ming so'mni , Bag'dod tumani – 693,1 ming so'mni, Dang'ara tumani – 611,8 ming so'mni, Furqat tumanida 629,1 ming so'mni tashkil etdi.


**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari
va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish
2021- yilning yanvar-aprel oylarida, ming so'm**

		<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>
1	<i>Oltiariq t.</i>	575,4	362,3
2	<i>Qo'shtepa t.</i>	1113,2	372,6
3	<i>Bag'dod t.</i>	994,6	693,1
4	<i>Buvayda t.</i>	513,9	316,4
5	<i>Beshariq t.</i>	725,6	414,1
6	<i>Quva t.</i>	595,5	253,5
7	<i>Uchko'prik t.</i>	2571,0	1884,1
8	<i>Rishton t.</i>	573,2	149,8
9	<i>So'x t.</i>	241,1	199,2
10	<i>Toshloq t.</i>	4726,3	982,8
11	<i>O'zbekiston t.</i>	823,3	218,7
12	<i>Farg'ona t.</i>	1085,1	119,5
13	<i>Dang'ara t.</i>	925,4	611,8
14	<i>Furqat t.</i>	754,2	629,1
15	<i>Yozyovon t.</i>	285,7	269,5
16	<i>Farg'ona sh.</i>	5930,5	973,3
17	<i>Qo'qon sh.</i>	4708,6	1972,4
18	<i>Quvasoy sh.</i>	3705,4	381,3
19	<i>Marg'ilon sh.</i>	1114,2	703,5
Farg'ona viloyatida		1828,6	656,7

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

2021- yilning yanvar-aprel oylarida, %da

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2648,9 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 37,9 %ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Beshariq (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Soʻx (100,0 %), Furkat (100,0 %), va Yozyovon (100,0 %) tumanlarida kuzatildi.

ViLOYAT hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, Quvasoy (12,0 %), Fargʻona (14,6 %), Qoʻqon (30,7 %) shaharlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini
(2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 9 505 ta sanoat korxonalarini faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1 457 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 15,3 %) Qo'qon shahriga, 1 092 tasi (11,5 %) Farg'ona shahriga, 1 058 tasi (11,1 %) Marg'ilon shahriga, 665 tasi (7,0 %) Uchko'prik tumaniga, 545 tasi (5,7 %) O'zbekiston tumaniga, 521 tasi (5,5 %) Buvayda tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Yangi tashkil etilgan korxonalar soni, birlikda	Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, birlikda
---	---



2021- yilning yanvar-aprel oyida viloyatda 828 ta yangi sanoat korxonalarini tashkil etildi, shulardan 81 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini hajmidagi ulushi 9,8 %) Qo'qon shahrida, 65 tasi (7,9 %) Farg'ona shahrida, 66 tasi (8,0 %) Marg'ilon shahrida, 61 tasi (7,4 %) Uchko'prik tumanida, 53 tasi (6,4 %) Dang'ara tumanida, 50 tasi (6,0 %) Rishton tumanida, 44 tasi (5,3 %) Oltiariq tumanida, hamda 46 tasi (5,6 %) O'zbekiston tumanida tashkil etildi.



Farg'ona viloyat statistika
boshqarmasining
Sanoat statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul: Sh.Zokirov

Aloqa telefoni: 73 -249-87-19